

**O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA  
MILLIY VA XALQARO INSTITUTSIONAL INTEGRATSION  
JARAYONLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

**Mamanov Muhammadamin Qulmirza o‘g‘li**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

E-mail: [mukhammadaminmamanov@gmail.com](mailto:mukhammadaminmamanov@gmail.com)

**Nilufar Batirova**

Ilmiy rahbar:

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, PhD, dotsent,

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqola jahonda yuqori sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan turizm sohasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish va ularning samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish usullarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. O‘zbekistonda jadal borayotgan bugungi integratsiyalashuv jarayonlarida turizm sohasi rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o‘rta dinamikasiga ta’siri ham tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** turizm industriyasi, ziyorat turizmi, Turkiy davlatlar tashkiloti, globallashtirish, xorijiy turistlar tashrifi, iqtisodiy rivojlanish, oilaviy mehmon uylari.

Covid-19 global pandemiyasi tufayli zarar ko‘rib, o‘rta tendensiyalari butunlay to‘xtab qolgan sohalardan biri bo‘lgan turizm sohasi aynan ushbu pandemiyadan keyin birinchilardan bo‘lib uyg‘onadigan sohalardan biri bo‘lishi kutilmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro turizm tiklanishning kuchli belgilarini ko‘rsatishda davom etmoqda, joriy 2022 yilning birinchi yetti oyida sayohat qiluvchi turistlar soni pandemiyagacha bo‘lgan darajaning 57 foizini tashkil etgan. Shuningdek,

2022 yilning yanvar-iyul oylarida xalqaro sayyohlar kelishi 2021-yilning shu davriga nisbatan qariyb uch baravar ko‘paygan.

O‘zbekiston azaldan turli xil madaniyat va sivilizasiyalar markazi sifatida rivojlanib, bu hududdan ham diniy ham dunyoviy ilmlari bo‘yicha dunyoga nomi ketgan allomalar tavallud topgani, ulg‘ayib, faoliyat yuritgani, ular tomonidan Xorazm va Samarqand shaharlarida o‘z davrining eng buyuk ilm akademiyalarining tashkil etilishi tufayli ham bu hudud asosiy ziyorat maskanlaridan biriga aylanmoqda. 2022 yil 11 noyabrda o‘tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining “Turkiy sivilizasiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari” mavzusidagi yig‘ilishida tinchlik va do‘stlik ramzi, fan va ma‘rifat markazi bo‘lmish Samarqand shahri “Turkiy sivilizasiya poytaxti” deb e‘lon qilish tashabbusi bir ovozdan qo‘llab-quvvatlangani ham ushbu fikrni bevosita tasdiqlaydi.

Bugungi kunda turizm sektorining sig‘imini oshirish, kelayotgan tashrifchilarning qolish davomiyligini oshirish, ulardan qoladigan daromad miqdorishini oshirish uchun joylashtirish vositalari tarmog‘i va infratuzilmasini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Joylashtirish vositalarini rivojlantirishning qulay mexanizmlarini rivojlantirish, yurtimizning ko‘pchilik sayyohlar tashrif buyuradigan shaharlari Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarida tashkil etilgan mehmonxona xizmatlarining sifat darajasini oshirish hozirgi oldimizdagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekiston xalqi azaldan bunyodkor xalq hisoblanib, ko‘plab ilm maskanlari, madrasalar, masjid-u maqbaralari va boshqa inshootlari bilan dunyo aholisini lol qoldirib kelgan. Ushbu zaminda shakllangan qutlug‘ an‘analarni izchil davom ettirgan holda, Samarqandning qadimiy shuhratini tiklash maqsadida oxirgi yillarda uni yanada ko‘rkam va obod qilish, chinakam xalqaro turizm markaziga aylantirish bugun ham davom ettirilmoqda. Yangidan qurilib, foydalanishga topshirilgan “Buyuk ipak yo‘li” markazi yiliga 2 million turistga xizmat qiladig, bu ko‘p tarmoqli markaz tarkibida “Boqiy shahar” majmuasi, Kongress holl, 8 ta zamonaviy mehmonxona, amfiteatr va ko‘plab boshqa ob‘ektlar mavjud.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilgacha Samarqandga tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy turistlar soni 500 ming nafardan oshmaydi, ammo joriy 2022 yilda amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlar, ayeroport va shahar transport tizimining tubdan yaxshilanganligi, turizmni rivojlantirish bo'yicha huquqiy islohotlar, qulay investisiyaviy muhit yaratish bo'yicha sa'y-harakatlar tufayli Samarqandga kelayotgan xorijiy turistlar soni 2 barobar ko'paydi. Ushbu ko'rsatkichni yanada oshirishda shaharda xorijiy mehmonxonlar qabul qilish sig'iminining maqsadli shakllantirish muhim rol o'ynaydi. Buni rivojlangan xorijiy davlatlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrda turizmni rivojlantirish strategiyasida, bu boradagi ko'rsatkichni 10 million nafarga yetkazish vazifasi qo'yilib, 1 iyuldan boshlab, turizm qishloqlarida mehmon uylari, ovqatlanish va savdo shoxobchalari, ko'ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uch yil davomida aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada, mol-mulk, yer, suv soliqlarini hisoblangan summadan bor-yo'g'i 1 foizini to'lashi imkoniyati berilmoqda. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida, turizmga ixtisoslashgan qishloqlarda mehmon uylari tashkil etishga 50 million so'mgacha, o'tov va eko-uylar majmuasiga 300 million so'mgacha, chodirli lagerlar qurishga 300 million so'mgacha kreditlar berilishi, har yili turizm qishloqlarining 200 nafar yoshlari byudjet hisobidan Turizm texnikumlarida bepul o'qitilishi tizimi joriy etilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston mehmonxona sanoati va unga turdosh xizmatlar tarmog'larini rivojlantirish bo'yicha katta potensial tajribaga ega bo'lib, bunda joylashtirish vositalari tarmog'ining umumiy mexanizmini yaratish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga solib, turizm sohasida pandemiyagacha bo'lgan ko'rsatkichlarni tiklash, xizmatlar ko'lamini kengaytirish, avvalo har bir viloyatda sayyohlarni o'ziga ohanrabodday jalb qiladigan yirik loyihalarni amalga oshirish lozim hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. UNWTO Tourism Highlights. Edition 2017. - Madrid, WTO Publications Department. -2018.
2. [uzbektourism.uz](http://uzbektourism.uz), [stat.uz](http://stat.uz)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165 sonli farmoni

